
Viloyat hokimining o'rinbosari Qo'shtepa tumanida bo'ldi

Qo'shtepa tumani hokimligining yig'ilishlar zalida tumandagi qishloq xo'jaligi tizim tashkilotlari va paxta-g'allachilik fermer xo'jaliklari ishtirokida viloyat hokimining o'rinbosari A.Tursunov hamda sektor rahbarlari boshchiligida qishloq xo'jaligi masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ishda qish mavsumida amalga oshirilishi lozim bo'lgan agrotexnik tadbirlar ijrosi hamda bu sohada yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish masalasi muhokama etildi.

Yig'ilish davomida ishlarni tizimli tashkil etish bo'yicha mas'ullarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

2025-01-20 15:47:34